

O`zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligida
2007 yil 3 sentyabrda 1707-sondan
bilan ro`yxatga olingan
Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligi,
Sog`liqni saqlash vazirligi,
Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi,
Xalq ta'limi vazirligining
2007 yil 9 avgustdagida
164, 11, 3/10, 19-son qarori bilan
TASDIQLANGAN

Aspirantura (doktorantura) to`g`risida NIZOM

Muqaddima

- I. Oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasida aspirantura (ad'yunktura) faoliyatini tashkil etish
- II. Oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida doktorantura faoliyatini tashkil etish
- III. Aspirantura va doktoranturalar faoliyatini shartnoma asosida tashkil etish
- IV. Mustaqil tadqiqotchilik orqali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash
- V. Faoliyat ko`rsatayotgan fan doktorlari, professorlar hamda ilmiy rahbarlik huquqiga ega fan nomzodlari to`g`risida Ma'lumot

Ushbu Nizom O`zbekiston Respublikasining "Ta'lim to`g`risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to`g`risida"gi qonunlariga hamda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 7 avgustdagagi "Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi PQ-436-sondan qaroriga muvofiq oliy o`quv yurtidan keyingi ta'limni aspirantura, ad'yunktura va doktorantura orqali yoki mustaqil ta'lim shaklida tashkil etish hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash tartibini belgilaydi.

I. OLIY TA`LIM VA ILMUY-TADQIQOT MUASSASASIDA ASPIRANTURA (ADÝYuNKTURA) FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

- §-1. Umumiylar
- §-2. Maqsadli aspirantura
- §-3. Aspiranturaga ega oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining huquq va majburiyatları
- §-4. Aspiranturaga yo`llovchi oliy ta'lim, ilmiy-tadqiqot muassasasi va tashkilotlarning huquq va majburiyatları
- §-5. Aspirantning huquq va majburiyatları
- §-6. Ilmiy rahbarning huquq va majburiyatları

§-1. Umumiylar

1. Aspirantura (ad'yunktura) oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar hamda zamonaviy ilmiy-tadqiqot bazasiga ega bo`lgan oliy ta'lif muassasasi (bundan keyingi o`rinlarda OTM deb yuritiladi) yoki ilmiy-tadqiqot muassasasida (bundan keyingi o`rinlarda ITM deb yuritiladi) tadqiqotchilarining ilmiy-tadqiqot olib borish usullari va vositalarini o`rganishlari, yuqori saviyada mustaqil ilmiy, pedagogik va tarbiyaviy ish olib borish qobiliyatini egallashlari uchun ochiladi.
2. Tegishli ixtisoslik bo`yicha aspirantura OTM yoki ITMning bo`ysunuviga ko`ra mos ravishda Fanlar akademiyasi (bundan keyingi o`rinlarda FA deb yuritiladi), vazirlik va idoralar qarorlari bilan ochiladi.
3. Muayyan ixtisoslik(lar) bo`yicha oliy malakali kadrlar (fan doktorlari va nomzodlari) hamda zamonaviy ilmiy-tadqiqot bazasiga ega bo`lgan OTM va ITMlari aspirantura ochishning maqsadga muvofiqligi to`g`risidagi idoraviy bo`ysunuviga muvofiq tegishli vazirlik va idoralarga murojaat etadilar. Murojaat bilan birga OTM yoki ITM Ilmiy kengashining tegishli qarori, aspirantura (ad'yunktura) ochilishi rejalashtirilayotgan ixtisoslik(lar) bo`yicha muassasada faoliyat ko`rsatayotgan fan doktorlari hamda ilmiy rahbarlik huquqiga ega bo`lgan fan nomzodlari to`g`risidagi ma'lumot kadrlar bo`limi tomonidan tasdiqlangan holda mazkur Nizomda keltirilgan ilovaga muvofiq taqdim etiladi.
4. FA vazirlik va idoralar o`z tasarrufidagi muassasalar aspirantura (ad'yunktura)lari faoliyatini muvofiqlashtiradilar, ularning samaradorligi (aspirantlar tomonidan dissertasiyalarning o`z muddatida himoya qilinishi yoki Ixtisoslashgan kengashga taqdim etilishi) yuzasidan monitoring va nazorat ishlarini olib boradilar hamda ularga ilmiy-uslubiy rahbarlik qiladilar.
5. Aspirantura (ad'yunktura)ga davlat grantlari bo`yicha yillik qabul rejalari loyihasi davlat akkreditasiyasidan o`tgan ixtisosliklar bo`yicha FA, vazirlik va idoralar tomonidan muassasalardagi ilmiy-pedagogik kadrlarga bo`lgan real ehtiyoj, aspirantura (ad'yunktura) samaradorligi, muayyan ixtisoslik bo`yicha mavjud ilmiy rahbarlar faoliyati samaradorligi hamda har bir ilmiy rahbarga bir vaqtning o`zida biriktirilishi mumkin bo`lgan aspirantlar soni bo`yicha mazkur Nizomda belgilangan normalardan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi va Moliya vazirligi ajratgan mablag` doirasida tasdiqlanadi.
6. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni aspirantura (ad'yunktura) orqali shartnomaga asosida tayyorlash OTM va ITMlar tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.
7. Aspirantura (ad'yunktura)larga qabul tasdiqlangan rejaga asosan FA, vazirlik va idoralar, OTM va ITMlarning ommaviy axborot vositalarida bergan e'lonlariga muvofiq tanlov asosida yilda bir marta sentyabr-oktyabr oylarida amalga oshiriladi hamda noyabr oyidan rasmiylashtiriladi. Qabul to`g`risidagi tahliliy hisobotlar yilning 15 noyabriga qadar FA, vazirlik va idoralarga taqdim etiladi.
8. Aspirantura (ad'yunktura)ga oliy ma'lumotli mutaxassis diplomiga yoki magistr darajasiga ega bo`lgan, ilmiy izlanish olib borish qobiliyatini namoyon eta olgan shaxslar uch yillik muddatga qabul qilinadilar.
9. Aspirantura (ad'yunktura)ga kirayotgan shaxslar aspirantura (ad'yunktura) faoliyat ko`rsatayotgan OTM yoki ITMga quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:
 - a) ariza;
 - b) shaxsiy varaqa va tarjimai hol;

- v) ish joyidan tavsifnomा (boshqa tashkilotlardan yuboriladigan shaxslar uchun);
 - g) chop etilgan ilmiy ishlari va ixtirolari ro`yxati hamda ularning nusxalari, ilmiy-tadqiqot ishlari to`g`risidagi hisobotlar ro`yxati (agar mavjud bo`lsa).
- Ilmiy ishlari e`lon qilinmagan va ixtirolari bo`lmagan shaxslar tanlagan ixtisosligi bo`yicha 20 betdan kam bo`lmagan ilmiy ma'ruza (referat) taqdim etadilar. Ilmiy ma'ruzaga soha bo`yicha mutaxassis-olim taqrizi ilova qilinishi lozim;
- d) aspirantura (ad'yunktura)ga bevosita OTMni tugatgandan keyin hujjat topshirayotgan shaxslar (magistratura talabalari orasidan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiatlari, imtiyozli diplom egalari, OTM Ilmiy kengashi tavsiyasi mavjud da'vogarlar) uchun OTM Ilmiy kengashi majlisining bayonidan ko`chirma;
 - e) oliy ta'limning barcha bosqichlarini o`tganligini tasdiqlovchi diplom nusxasi;
 - j) nomzodlik imtihonlarini topshirganligi to`g`risidagi guvohnoma (agar topshirgan bo`lsa);
 - z) mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotganlar uchun);
 - i) tibbiy ma'lumotnoma (086-shakl);
 - y) 4x6 o`lchamdagи 4 dona fotosurat;
 - k) pasport va harbiy bilet (agar mavjud bo`lsa) shaxsan ko`rsatiladi.

10. Aspirantura (ad'yunktura)ga qabul qilish uchun OTM rektori yoki ITM direktori raisligida qabul komissiyasi tashkil etiladi. Qabul komissiyasining a'zolari rektor (direktor) tomonidan aspirantura (ad'yunktura) ixtisosliklari bo`yicha yetakchi olimlardan tayinlanadi. Komissiya tarkibiga imtihon topshiriladigan ixtisoslik bo`yicha fan doktori yoki professorlar kiritiladi, komissiyaning qolgan a'zolari fan nomzodlari bo`lishi mumkin.

11. Aspirantura (ad'yunktura)ga kirayotgan shaxslar mo`ljallanayotgan ilmiy rahbar bilan suhbatdan o`tadilar. Mo`ljallanayotgan ilmiy rahbar OTM rektori yoki ITM direktoriga ilmiy rahbarlikka roziligin yozma ravishda ma'lum qiladi. Qabul komissiyasi mo`ljallanayotgan ilmiy rahbarning roziligin hisobga olib, shuningdek, aspirantura (ad'yunktura)ga kiruvchining mutaxassislik bo`yicha referati yoki taqdim etgan ilmiy ishlari, ilmiy-texnik hisobotlari, ixtirolari, tajriba-konstrukturlik ishlari va nashr etilgan maqolalarini tahlil qilib, kirish imtihonlarini topshirishga ruxsat etish to`g`risida qaror qabul qiladi. OTM rektori yoki ITM direktori ushbu qaror asosida aspirantura (ad'yunktura)ga kiruvchini imtihonlarni topshirishga qo`yish to`g`risida buyruq chiqaradi va bir haftalik muddatda unga ma'lum qiladi.

12. Aspirantura (ad'yunktura)ga kirish imtihonlari ro`yxati va dasturi qabul komissiyasi tomonidan tegishli ixtisoslik mohiyatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilib, FA, vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi. Aspirantura (ad'yunktura)ga kiruvchilar O`zbekiston tarixi, falsafa, chet tili (ingliz, nemis, fransuz yoki boshqa tillardan biri) va ixtisoslik bo`yicha kirish imtihonlarini topshiradilar. Ixtisoslik bo`yicha kirish imtihoni boshqa fanlar imtihonlaridan oldin topshiriladi.

13. Aspirantura (ad'yunktura)ga kirish imtihonlarini topshiruvchi shaxslarga imtihonlarga tayyorlanish va topshirish uchun ish joyidan o`rtacha oylik ish haqini saqlangan holda 12 kalender kungacha qo`shimcha ta'til beriladi. Aspirantura (ad'yunktura)ga kiruvchilar ushbu ta'tildan bir yilda bir marta foydalananadilar. Aspirantura (ad'yunktura)ga kirish imtihonlarini topshirmsadan qabul qilinadigan (xususan, nomzodlik imtihonlarini topshirgan) shaxslar bunday huquqdan foydalanmaydilar. OTM rektori yoki ITM direktorining kirish imtihonlariga qo`yilganlik haqidagi bildirish xati qo`shimcha ta'til berish uchun asos hisoblanadi. Kirish imtihonlariga kelib-ketish bilan bog`liq yo`l xarajatlari yo`llovchi tashkilot hisobidan qoplanadi.

14. Nomzodlik imtihonlarini qisman yoki to`liq (mutaxassislikdan tashqari) "yaxshi" yoki "a'lo" baholarga topshirgan shaxslar 5 (besh) yil davomida aspirantura (ad'yunktura)ga kirishda tegishli kirish imtihonlarini topshirishdan ozod etiladilar. Nomzodlik imtihonlarini to`liq

(mutaxassislikdan tashqari) topshirgan shaxslar mutaxassislik bo`yicha kirish imtihonini "a'lo" yoki "yaxshi" baholarga topshirsalar, aspirantura (ad'yunktura)ga tanlovsiz qabul qilinadilar.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 25 martdagি 157-sonli qaroriga muvofiq magistratura talabalari orasidan O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiatlari magistraturani tugatganlaridan so`ng 2 (ikki) yil, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug`bek va Imom al-Buxoriy davlat stipendiyalari (bundan keyingi o`rinlarda Davlat stipendiyalari deb yuritiladi) sovrindorlari esa 1 (bir) yil davomida aspirantura (ad'yunktura)ga kirish imtihonlarisiz qabul qilinadilar. Agar mutaxassisligi to`g`ri kelmasa, faqat mutaxassislik fanidan kirish imtihonini topshiradilar.

15. Kirish imtihonlari natijalari bo`yicha aspirantura (ad'yunktura)ga qabul qilish davlat buyurtmasi asosida OTM rektori yoki ITM direktorining buyrug`i bilan rasmiylashtiriladi. Aspirant (ad'yunkt) uchun o`rnatilgan tartibda fan doktorlari yoki ilmiy rahbarlikka ruxsati bo`lgan fan nomzodlari tarkibidan ilmiy rahbar tayinlanadi. OTM yoki ITMLari Ilmiy kengashining qaroriga ko`ra aspirantga ilmiy rahbarlik qilish uchun tegishli ixtisoslik bo`yicha kamida 5 yillik ilmiy va ilmiy-pedagogik staj, dosent yoki katta ilmiy xodim ilmiy unvoniga ega bo`lgan fan nomzodlari ham tayinlanishi mumkin. Zarur hollarda aspirant (ad'yunkt)ga boshqa tashkilotdan ham ilmiy rahbar tayinlanishi mumkin. O`zaro yaqin ixtisosliklar orasida ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilayotganda ikki nafar ilmiy rahbar yoki ilmiy rahbar va maslahatchi tayinlanishiga ruxsat etiladi, bunda ularning biri fan nomzodi bo`lishi mumkin.

16. Aspirant (ad'yunkt)ga aspirantura (ad'yunktura)ga qabul qilingan kundan boshlab stipendiya tayinlanadi.

17. Moliya vazirligi aspiranturaga qabul bo`yicha tasdiqlangan reja asosida tayyorlangan xarajatlar smetasiga ko`ra FA, vazirlik va idoralarga OTMLari uchun davlat byudjetining maorif, ITMLari uchun davlat byudjetining fan sohasi bo`yicha belgilangan tartibda tegishli mablag`larni ajratadi va ushbu mablag`lar hisobidan aspirantlarga mehnatga haq to`lashning yagona tarif setkasi bo`yicha belgilangan tartibda stipendiya to`lanadi. Ad'yunktarning moddiy ta'minoti harbiy ta'lif uchun o`rnatilgan tartibda amalga oshiriladi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining aspirantlar uchun Davlat stipendiyalari Oliy va o`rta maxsus ta'lif vazirligi Hay'ati qaroriga asosan OTM va ITM buyrug`i bilan to`lanadi.

18. Aspirantura (ad'yunktura)da o`qish muddatiga har yili beriladigan 30 kalendar kundan iborat haq to`lanadigan ta'til ham kiradi va bu muddat ilmiy-pedagogik (harbiy) stajga qo`shiladi.

19. Aspirantura (ad'yunktura) muddati tegishli hujjatlar mavjudligida uzoq davom etgan kasallik, homiladorlik va tug`ish ta'tillari hamda zaxiradagi harbiylarning chaqiruv bilan bog`liq ta'tillari davriga uzaytirilishi mumkin.

20. Aspirantlar o`qish davri davomida ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat bilan bog`liq bo`lmagan ishlarga jalg qilinmaydilar, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

21. Aspirantura (ad'yunktura)da tahsil olayotgan shaxslar aspirant (ad'yunkt)ning shaxsiy ish rejalarini sababsiz bajarmaslik, OTM yoki ITM ichki tartib-qoidalarini buzganlik sabablari tufayli aspirantura (ad'yunktura)dan chetlashtirilishlari mumkin. Mazkur sabablarga ko`ra aspirantura (ad'yunktura)dan chetlashtirilgan shaxslar aspirantura (ad'yunktura)ga qayta tiklanmaydilar.

22. Aspiranturani muddatidan ilgari dissertasiya himoyasi bilan tamomlagan aspirantlarga OTM va ITMning byudjetdan tashqari mablag`lari hisobidan besh oylik stipendiya miqdorida mukofot

to`lanadi. Dissertasiya ishini muddatidan ilgari himoya qilgan aspirant 30 kalendar kundan iborat haq to`lanadigan ta`til berilgandan so`ng aspiranturadan chiqariladi.

23. OTMlarda ilmiy rahbarlarning aspirantlar bilan olib boradigan ishi har bir aspirant uchun 100 soat hajmida ularning umumiy dars soatlari hisobiga kiritiladi. ITMlarda esa ilmiy rahbarga har bir aspirant uchun davlat byudjetining fan sohasi mablag`laridan, aspirant shartnomaga bo`yicha tayyorlanayotgan bo`lsa, shartnomaga summasidan bir yilda 100 soat hisobidan haq to`lanadi.

24. Dissertasiya ishini muddatidan ilgari yoki muddatida himoya qilgan aspirantning ilmiy rahbari OTM yoki ITM rahbariyati tomonidan byudjetdan tashqari mablag`lar hisobidan uch oylik maosh miqdorida moddiy rag`batlantiriladi.

25. Aspirantning avtoreferatini chop etish va tarqatish bilan bog`liq sarf-xarajatlari OTMlар tomonidan davlat byudjetining maorif, ITMlар tomonidan davlat byudjetining fan sohasi mablag`lari hisobidan qoplanadi.

26. Aspiranturada o`qish muddati aspirantura bitiruvchilarining umumiy, mutaxassisligi bo`yicha va ilmiy-pedagogik stajiga qo`shiladi.

§-2. Maqsadli aspirantura

27. Maqsadli aspirantura - oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashning asosiy shakllaridan biri hisoblanib, idora ichida, vazirlik va idoralararo hamda davlatlararo bo`ladi. Idora ichida maqsadli aspirantura orqali kadrlar tayyorlash - biror OTM yoki ITM o`z vazirligi yoki idorasi tasarrufidagi boshqa OTM yoki ITM uchun kadrlar tayyorlashidir. Idoralararo maqsadli aspirantura orqali kadrlar tayyorlash - biror OTM yoki ITMning boshqa vazirligini yoki idora tasarrufidagi OTM yoki ITM uchun kadrlar tayyorlashidir. Davlatlararo maqsadli aspirantura orqali kadrlar tayyorlash - bir mamlakatning OTM yoki ITM boshqa mamlakatning OTM yoki ITMlari uchun kadrlar tayyorlashidir. Aspirantlarni idora ichida (muassasalar filiallari bundan mustasno) va idoralararo maqsadli tayyorlash uchun ularni yo`llovchi va qabul qiluvchi tashkilot o`rtasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shartnomaga tuziladi. Aspirantlarni davlatlararo maqsadli tayyorlash Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda o`rnatilgan tartibda mamlakatlarga ajratilgan kvotalar doirasida yoki FA, vazirlik va idoralar yo`llanmasi asosida amalga oshiriladi. Maqsadli aspiranturaga o`rinlar yo`llovchi va qabul qiluvchi tomonlar o`rtasida tuzilgan shartnomaga nusxasi tegishli vazirlik va idoralarga taqdim etilgandan so`ng ajratiladi.

ITM, OTMlari va tashkilotlar tomonidan yuboriladigan shaxslar maqsadli aspiranturaga yo`llovchi hamda qabul qiluvchi tomonlar o`rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq qabul qilinadilar.

28. Maqsadli aspiranturaga qabul tasdiqlangan reja bo`yicha OTM va ITMlarning ommaviy axborot vositalarida bergen e'lonlariga muvofiq yilda bir marta sentyabr-oktyabr oyida amalga oshiriladi hamda noyabr oyidan rasmiylashtiriladi. Qabul to`g`risidagi hisobotlar yilning 15 noyabriga qadar FA, vazirlik va idoralarga taqdim etilishi lozim.

29. Maqsadli aspiranturaga yuboriladigan nomzodlarni yo`llovchi tashkilot tanlaydi. Kirish imtihonlari qabul qiluvchi OTM yoki ITMda topshiriladi. Maqsadli aspiranturaga mo`ljallangan

davlat byudjeti mablag`lari FA, vazirlik va idoralar orqali maqsadli aspiranturaga qabul qiladigan OTM va ITMlarga ajratiladi.

30. Maqsadli aspiranturaga qabul qilingan shaxslarga qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda stipendiya to`lanadi hamda mazkur Nizomning 18-bandiga muvofiq ta'til beriladi.

§-3. Aspiranturaga ega oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining huquq va majburiyatları

31. Aspiranturaga ega OTM va ITMlar quyidagi huquqlarga ega:

- a) ilmiy rahbarning aspirantni xorijiy yetakchi ilmiy markazlar yoki OTMlariga ilmiy xizmat safariga yuborish to`g`risidagi iltimosnomasi va qabul qiluvchi tomonning taklifnomasi mavjud bo`lgan holda Ilmiy kengashda ilmiy xizmat safariga yuborishning maqsadga muvofiqligi masalasini ko`rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish;
- b) shaxsiy ish rejalarini bajarmagan va tegishli hisobotini topshira olmagan, OTM yoki ITM ichki tartib-qoidalarini buzgan aspirantni aspiranturaga qayta tiklanish hukuqisiz aspiranturadan chetlatish va bu haqda mutaxassisni o`qishga yo`llagan OTM, ITM yoki tashkilotga xabar berish;
- v) aspirantlarni shartnoma (idoralararo, davlatlararo) asosida o`qitish uchun tushadigan mablag`larni belgilangan tartibda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va chet ellarda o`z mutaxassislarining malakasini oshirishga sarflash.

32. Aspiranturaga ega OTM va ITMlar quyidagi majburiatlarga ega:

- a) aspiranturaga ilmiy-tadqiqot olib borish qobiliyati, oliy ma'lumotli mutaxassis diplomiga yoki magistr darajasiga ega bo`lgan shaxslarni tanlov asosida qabul qilishni ta'minlash
- b) Ilmiy kengashlarda aspirantlarga fan, texnika, ta'lim va madaniyat sohalarining respublika uchun ustuvor yo`nalishlari (Davlat ilmiy-texnika dasturlari)ni hisobga olgan holda ilmiy ishlar mavzusini, ish rejasini va ilmiy rahbarini 3 oydan kechiktirmay tasdiqlash;
- v) aspirantlarning nomzodlik minimumlarini topshirishi, umumnazariy tayyorgarligi va tajribaviy tadqiqotlar o`tkazishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, shuningdek tajribali olimlardan ilmiy rahbarlar tayinlash hamda ularni stipendiya bilan o`z vaqtida ta'minlash;
- g) aspirantlarning O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyalari tanlovlariда va xorijiy mamlakatlarda mutaxassisligi bo`yicha tashkil etiladigan ilmiy anjumanlarda ishtirok etishini ta'minlash;
- d) nomzodlik minimumi bo`yicha imtihonlarni topshirish bilan bog`liq sarf-xarajatlarni qoplash;
- e) davriy hisobot orqali aspirantlar faoliyatini muntazam nazorat qilish, Ilmiy kengashlarda ilmiy rahbarlarning hisobotlarini muhokama qilish va tegishli qaror qabul qilish;
- j) ilmiy rahbar tomonidan yetarli va malakali rahbarlik amalga oshirilmagan taqdirda Ilmiy kengashda aspirantning ilmiy rahbarni almashtrish to`g`risidagi arizasini ko`rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish.

§-4. Aspiranturaga yo`llovchi oliy ta'lim, ilmiy-tadqiqot muassasasi va tashkilotlarning huquq va majburiyatları

33. Aspiranturaga yo`llovchi OTM, ITM va tashkilotlar quyidagi huquqlarga ega:

- a) aspirantning ilmiy faoliyatini nazorat qilish hamda hisobot materiallarini so`rab olish;
- b) aspirant shartnoma shartlarini bajarmaganda undan aspiranturada tayyorlash bilan bog`liq surʼat-xarajatlar qoplanishini o`rnatilgan tartibda talab qilish.

34. Aspiranturaga yo`llovchi OTM, ITM va tashkilotlar quyidagi majburiyatlarga ega:

- a) qonun hujjatlarida belgilangan hollarda aspiranturaga qabul qilingan shaxslar bilan aspiranturaga qabul qilinganlik to`g`risidagi buyruq yoki undan tasdiqlangan ko`chirma asosida mehnat shartnomasini bekor qilish;
- b) shartnoma shartlarini bajarish hamda aspirantni o`qishi va yashashi bilan bog`liq xarajatlarni qoplash maqsadida tegishli mablag`larni o`z vaqtida aspirant tayyorlab berayotgan OTM yoki ITM hisob raqamiga o`tkazib berish.

§-5. Aspirantning huquq va majburiyatları

35. Aspirant quyidagi huquqlarga ega:

- a) OTM va ITMning uskuna, laboratoriya, xona, kutubxona va boshqalaridan foydalanish;
- b) mutaxassisligi bo`yicha ilmiy ekspedisiya, konferensiya, seminar va boshqalarda ishtiroy etish;
- v) O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyalari tanlovida ishtiroy etish;
- g) ilmiy xizmat safarlariga, shu jumladan, xorijiy mamlakatlarga borish (O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyasi sovrindori bo`lgan aspirantlar o`qishni bitirgandan so`ng uch yil mobaynida o`qishni davom ettirish va tajriba orttirish uchun xorijga jo`natishda imtiyozli huquqni saqlab qoladilar);
- d) ilmiy-tadqiqotlar bo`yicha yetarli va malakali rahbarlik amalga oshirilmagan taqdirda, ilmiy rahbarni almashtirish to`g`risida Ilmiy kengashga ariza bilan murojaat etish;
- e) davlat grantlari hamda xo`jalik hisobidagi ilmiy ishlarni bajarishda ishtiroy etish, shuningdek ilmiy rahbarning ruxsati bilan bir yilda 125 soatgacha bo`lgan hajmda pedagogik faoliyat olib borish.

36. Aspirant quyidagi majburiyatlarga ega:

- a) OTM yoki ITM Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlangan shaxsiy ish rejasi bo`yicha ilmiy-tadqiqot olib borish va uni to`liq bajarish;
- b) kafedra, bo`lim, laboratoriya va sektor majlislarida shaxsiy ish rejasining bajarilishi to`g`risida muntaзам ravishda (yilda kamida ikki marta) hisobot berib borish hamda yil yakunida tegishli hisobot topshirish;
- v) OAK tomonidan tasdiqlangan talablarga muvofiq ravishda o`z vaqtida nomzodlik imtihonlarini topshirish;
- g) ilmiy ishlarni OAK reestriga kiritilgan ilmiy jurnallarda ilmiy maqolalar shaklida eʼlon qilib borish;
- d) kasbiy bilimlar, mustaqil ilmiy-tadqiqot va pedagogik ish olib borish malakasi, ilmiy-tadqiqotlarni o`tkazish uslubiyatini egallash;
- e) nomzodlik dissertasiyasini muddatida himoya qilish va Ixtisoslashgan kengashga himoya uchun taqdim etish;
- j) maqsadli aspiranturani tugatgandan so`ng uni o`qishga yuborgan ITM, OTM va tashkilot ixtiyoriga qaytish va kamida 3 (uch) yil ishlab berish.

§-6. Ilmiy rahbarning huquq va majburiyatları

37. Ilmiy rahbar quyidagi huquqlarga ega:

- a) bir vaqtning o`zida ko`pi bilan 3 (uch) nafar aspirantga ilmiy rahbarlik qilish. Ilmiy rahbar bir vaqtning o`zida doktorantga ham ilmiy maslahatchi bo`lsa, doktorant va aspirantlarning umumiy soni uch kishidan oshmasligi lozim;
- b) Ilmiy kengashga aspirantni xorijiy yetakchi ilmiy markazlar va OTMlariiga xizmat safariga yuborishning maqsadga muvofiqligi to`g`risida asoslangan yozma iltimosnomasi bilan murojaat qilish.

38. Ilmiy rahbar quyidagi majburiyatlarga ega:

- a) aspirantning ilmiy ishiga samarali ilmiy rahbarlik qilish;
- b) aspirantning tasdiqlangan shaxsiy ish rejasini bajarishini muntazam nazorat qilish;
- v) dissertasiya ishining OAK talablariga muvofiq ravishda sifatli, o`z vaqtida tugallanishi va himoyaga taqdim etilishini ta'minlash;
- g) Ilmiy kengashda aspirant hisobotining muhokamasida ishtirok etish.

39. Dissertasiya ishlarini muddatida himoya qilinishini ta'minlaydigan ilmiy rahbarlar Ilmiy kengash qarori bilan qo`shimcha bir yoki ikki aspirantga ilmiy rahbarlik qilishi mumkin.

40. Ilmiy rahbarligida bajarilayotgan dissertasiyalar yuzasidan rahbarlik va nazoratni hamda o`z muddatida ularning himoyaga taqdim etilishini muntazam ta'minlamaydigan ilmiy rahbarlarga nisbatan Ilmiy kengash qarori bilan aspirantlarga ilmiy rahbarlik qilish huquqididan mahrum etishgacha bo`lgan choralar ko`riliishi mumkin.

II. OLIY TA`LIM VA ILMIY-TADQIQOT MUASSASALARIDA DOKTORANTURA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

§-1. Umumiy qoidalar

- §-2. Doktoranturaga ega oliy ta`lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining huquq va majburiyatları
- §-3. Doktorantning huquq va majburiyatları
- §-4. Ilmiy maslahatchining huquq va majburiyatları

§-1. Umumiy qoidalar

41. Doktorantura nufuzli ilmiy maktablar va laboratoriya-tadqiqot bazalariga ega bo`lgan yetakchi OTM va ITMlari qoshida fan va texnikaning eng muhim sohalari bo`yicha oliy malakali ilmiy, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash maqsadida hamda birinchi navbatda, fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish, davlat ilmiy-teknika dasturlarini, shuningdek fan va texnikaning ustuvor yo`nalishlarini amalga oshirish maqsadida tashkil etiladi.

42. Doktorantura FA, vazirlik va idoralar tomonidan OAK bilan kelishilgan holda ochiladi.

43. Tegishli ixtisosliklar bo`yicha oliy malakali kadrlar (fan doktorlari) hamda zamonaviy ilmiy-tadqiqot bazasiga ega bo`lgan OTM va ITMlari doktorantura ochishning maqsadga muvofiqligi to`g`risidagi murojaatlari bilan idoraviy bo`ysunuviga muvofiq tegishli vazirlik va idoralarga murojaat etadilar. Murojaat bilan birga OTM yoki ITM Ilmiy kengashining qarori hamda doktorantura ochilishi rejalashtirilayotgan ixtisosliklar bo`yicha muassasada faoliyat ko`rsatayotgan fan doktorlari to`g`risidagi ma'lumot kadrlar bo`limi tomonidan tasdiqlangan holda mazkur Nizomda keltirilgan ilovaga muvofiq taqdim etiladi.

44. FA, vazirlik va idoralar o`z tasarrufidagi muassasalar doktoranturalari faoliyatini muvofiqlashtiradilar, ularning samaradorligi (doktorantlar tomonidan dissertasiyalarning o`z

muddatida himoya qilinishi yoki Ixtisoslashgan kengashga taqdim etilishi) yuzasidan monitoring va nazorat ishlarini olib boradilar hamda ularga ilmiy-uslubiy rahbarlik qiladilar.

45. Doktoranturaga davlat grantlari bo`yicha yillik qabul rejaları loyihasi davlat akkreditasiyasidan o`tgan ixtisosliklar bo`yicha FA, vazirlik va idoralar tomonidan muassasalardagi ilmiy-pedagogik kadrlarga bo`lgan real ehtiyoj, doktorantura samaradorligi (dissertasiyalarni o`z muddatida himoya qilish yoki Ixtisoslashgan kengashga taqdim etish ko`rsatkichi), muayyan ixtisoslik bo`yicha mavjud ilmiy maslahatchilar faoliyati samaradorligi hamda har bir ilmiy maslahatchiga bir vaqtning o`zida biriktirilishi mumkin bo`lgan doktorantlar soni bo`yicha mazkur Nizomda belgilangan me'yorlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi va Moliya vazirligi ajratgan mablag` doirasida tasdiqlanadi. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni doktorantura orqali shartnoma asosida tayyorlash, OTM va ITMlar tomonidan tegishli vazirlik hamda idoralar bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

46. Doktoranturaga doktorlik dissertasiyasiga asos bo`la oladigan salmoqli ilmiy yutuqlarga erishgan, fundamental tadqiqotlarni yuksak saviyada olib borish va muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo`lgan ilmiy muammolarni hal qilishga qobiliyatli, fan nomzodi ilmiy darajasiga ega bo`lgan iste dodli ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlar qabul qilinadi.

47. Doktoranturaga kirayotgan shaxslar OTM yoki ITMga quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- a) ariza;
- b) shaxsiy varaqa va tarjimai hol;
- v) oliy ma'lumot, fan nomzodi diplomlari va dosent (katta ilmiy xodim) attestatlari nusxasi (agar mavjud bo`lsa);
- g) tadqiqot mavzusi bo`yicha ilmiy ma'ruza va doktorlik dissertasiyasining kengaytirilgan reja-loyihasi;
- d) chop etilgan ilmiy ishlari va ixtirolari ro`yxati hamda ularning nusxalari, ilmiy-tadqiqot ishlari to`g`risidagi hisobotlar ro`yxati (agar mavjud bo`lsa);
- e) ish joyidan tavsiifnomा (boshqa tashkilotlardan yuboriladigan shaxslar uchun);
- j) mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi;
- z) tibbiy ma'lumotnomा (086-shakl);
- i) 4x6 o`lchamdagи 4 dona fotosurat;
- y) pasport va harbiy bilet (agar mavjud bo`lsa) shaxsan ko`rsatiladi.

48. Doktorantura faoliyat ko`rsatayotgan OTM yoki ITMning Ilmiy kengashi tegishli kafedra, bo`lim, laboratoriyaning doktoranturaga tavsija etilgan nomzodning ilmiy ma'ruzasi va doktorlik dissertasiyasining kengaytirilgan reja-loyihasi bo`yicha xulosalarini ko`rib chiqadi hamda bajarilgan tadqiqotlar hajmini hisobga olgan holda nomzodni doktoranturaga qabul qilish yoki qilmaslik to`g`risida qaror qabul qiladi. Ilmiy kengash qarorida doktoranturada o`qish muddati tabaqlashtirilgan tarzda bir yildan uch yilgacha belgilanadi.

49. Doktoranturaga qabul tasdiqlangan reja bo`yicha OTM va ITMlarning ommaviy axborot vositalarida bergen e'lonlariga muvofiq yilda bir marta sentyabr-oktyabr oylarida amalga oshiriladi. Qabul to`g`risidagi hisobotlar yilning 15 noyabriga qadar FA, vazirlik va idoralarga taqdim etiladi.

50. Doktorantlarga dissertasiya tadqiqotlari o`tkazishlarida yordam ko`rsatish uchun zaruriyat tug`ilganida OTM rektori yoki ITM direktori buyrug`i bilan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar orasidan (akademik, fan doktori-professor) ilmiy maslahatchilar tayinlanadi. Ilmiy maslahatchi sifatida boshqa tashkilotlardan yetakchi olim va mutaxassislar ham jalg etilishi mumkin.

51. Doktorantlarni idora ichida (muassasalar filiallari bundan mustasno) va idoralararo maqsadli tayyorlash uchun ularni yo`llovchi hamda qabul qiluvchi tashkilot o`rtasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shartnoma tuziladi. Doktorantlarni davlatlararo maqsadli tayyorlash Oliy va o`rta maxsus ta'lif vazirligi bilan kelishilgan holda o`rnatilgan tartibda mamlakatlarga ajratilgan kvotalar doirasida yoki FA, vazirlik va idoralar yo`llanmasi asosida amalga oshiriladi. Maqsadli doktoranturaga o`rinlar yo`llovchi hamda qabul qiluvchi tomon o`rtasida tuzilgan shartnoma nusxasi tegishli vazirlik va idoralarga taqdim etilgandan so`ng ajratiladi.
52. Boshqa shahardan kelgan doktorantlar ularni o`qishga yuborgan tashkilot mablag`i hisobidan turar joy bilan ta'minlanadilar.
53. Doktoranturada o`qish muddati ilmiy-pedagogik stajiga qo`shiladi. Doktoranturada o`qish muddatiga har yili beriladigan 30 kalendar kundan iborat haq to`lanadigan ta'til ham kiradi.
54. Doktorantlar uchun stipendiya va ularning ilmiy rahbarlari uchun to`lovlar tasdiqlangan rejaga asosan tegishli OTM va ITMlarning xarajatlar smetasida ko`zda tutiladi.
55. Doktorantlarga ilmiy-tadqiqot muassasalarida davlat byudjetining fan, OTMlarda esa davlat byudjetining maorif sohasi bo`yicha ajratilgan mablag`lar hisobidan mehnatga haq to`lashning yagona tarif setkasi bo`yicha belgilangan razryadlarga muvofiq stipendiya to`lanadi.
56. OTMlarda ilmiy maslahatchilarining doktorantlar bilan olib boradigan ishi bir doktorant uchun bir yilda 100 soat hajmida ularning umumiy dars soatlari hisobiga kiritiladi. Ilmiy-tadqiqot muassasalarida esa doktorantlarning ilmiy maslahatchilari mehnatiga davlat byudjetining fan sohasi bo`yicha ko`zda tutilgan mablag`lardan, shuningdek, shartnoma summasidan har bir doktorant uchun bir yilda 100 soat hisobidan haq to`lanadi. Doktorantning avtoreferatlarini chop etish va tarqatish bilan bog`liq sarf-xarajatlari O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda Ixtisoslashgan kengash faoliyat ko`rsatayotgan OTMlar tomonidan davlat byudjetining maorif, ITMlar tomonidan esa davlat byudjetining fan sohasi mablag`lari hisobidan qoplanadi.
57. Doktorantlarga mehnat qonunchiligiga muvofiq o`rindoshlik bo`yicha ishlashga ruxsat etiladi.
58. Doktoranturani muddatidan ilgari dissertasiya himoyasi bilan tugatgan doktorantlarga OTM yoki ITMning byudjetdan tashqari mablag`lari hisobidan besh oylik stipendiya miqdorida mukofot to`lanadi. Dissertasiyasini muddatidan ilgari himoya qilgan doktorant 30 kalendar kundan iborat ta'til berilgandan so`ng doktoranturadan chiqariladi.
59. Doktorantlar butun o`qish davri davomida ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat bilan bog`liq bo`lmagan ishlarga jalb qilinmaydilar, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.
60. Doktoranturada o`qish muddati tegishli hujjatlar mavjudligida uzoq davom etgan kasallik, homiladorlik va tug`ish ta'tili hamda boshqa favqulodda sabablarga ko`ra uzaytiriladi, ularning moddiy ta'minoti esa qonunchilikda belgilangan tarzda amalga oshiriladi.

§-2. Doktoranturaga ega oliy ta'lif va ilmiy-tadqiqot muassasalarining huquq va majburiyatları

61. Doktoranturaga ega OTM va ITMlar quyidagi huquqlarga ega:

- a) Ilmiy kengashda ilmiy maslahatchining asoslangan taklifiga ko`ra doktorantni xorijiy yetakchi ilmiy markazlar yoki OTMlariga qabul qiluvchi tomonning taklifnomasi mavjud bo`lgan holda ilmiy xizmat safariga yuborish masalasini ko`rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish;
- b) shaxsiy ish rejalarini bajarmagan va tegishli hisobotni topshira olmagan, OTM yoki ITM ichki tartib-qoidalarini buzgan doktorantni doktoranturaga qayta tiklanish huquqisiz doktoranturadan chetlatish va bu haqda mutaxassisni o`qishga yo`llagan ITM, OTM yoki tashkilotga xabar berish;
- v) doktorantlarni shartnoma (idoralar ichida, idoralararo, davlatlararo) asosida tayyorlash uchun tushadigan mablag`larni belgilangan tartibda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va o`z mutaxassislarining malakasini oshirishga sarflash.

62. Doktoranturaga ega OTM va ITM quyidagi majburiyatlarga ega:

- a) fan, texnika, ta'lim va madaniyat sohasining respublika uchun ustuvor yo`nalishlari (Davlat ilmiy-texnika dasturlari)ni hisobga olgan holda doktorantning dissertasiya mavzusi, ish rejasи va (zaruriyatga ko`ra) ilmiy maslahatchisini uch oydan kechiktirmay tasdiqlash;
- b) doktorantlarning faoliyatini muntazam nazorat qilish hamda Ilmiy kengashlarda ilmiy maslahatchilar, kafedra, bo`lim, sektor, laboratoriya mudirlarining doktorantlarni tayyorlash bo`yicha faoliyatlarini to`g`risidagi hisobotlarini eshitish. Doktorantlar faoliyati bo`yicha yilda bir marta hisobot qabul qilish, muhokamadan o`tkazish va tegishli qaror qabul qilish.

§-3. Doktorantning huquq va majburiyatları

63. Doktorant quyidagi huquqlarga ega:

- a) laboratoriylar, uskunalar, xonalar, kutubxonalar va boshqalardan foydalanish;
- b) ilmiy safarlarga, shu jumladan, chet mamlakatlarga borish;
- v) ilmiy ekspedisiyalar, konferensiylar, seminarlar va boshqalarda ishtirok etish;
- g) doktoranturani muvaffaqiyatli tugatgach, uni doktoranturaga yuborgan OTM, ITM yoki tashkilotga qaytish.

64. Doktorant quyidagi majburiyatlarga ega:

- a) har yili muassasa Ilmiy kengashida shaxsiy ish rejalarining bajarilishi to`g`risida hisobot berish;
- b) dissertasiya ishini OAK talablariga muvofiq o`z muddatida tugallash, dastlabki ekspertizadan o`tkazish va Ixtisoslashgan kengashda himoya qilish yoki himoyaga taqdim etish;
- v) maqsadli doktoranturani tugatgandan so`ng uni doktoranturaga yuborgan OTM, ITM yoki tashkilot ixtiyoriga qaytish va kamida 3 (uch) yil ishlab berish.

§-4. Ilmiy maslahatchining huquq va majburiyatları

65. Ilmiy maslahatchi quyidagi huquqlarga ega:

- a) OTM rektori yoki ITM direktori tomonidan tasdiqlangan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash rejasini hisobga olgan holda, bir vaqtning o`zida ko`pi bilan ikki doktorantga ilmiy maslahatchilik qilish. Agar ilmiy maslahatchi bir vaqtning o`zida aspirantning ham ilmiy rahbari bo`lsa, doktorant va aspirant (ad'yunkt)larning soni 3 (uch) kishidan oshmasligi lozim. Dissertasiya ishlarining o`z vaqtida himoyaga taqdim etilishini ta'minlaydigan ilmiy maslahatchiga OTM yoki ITM Ilmiy kengashining qarori bilan qo`sishimcha ravishda bir yoki ikki doktorantga ilmiy maslahatchilik qilish;
- b) OTM yoki ITM Ilmiy kengashiga doktorantni xorijiy ilmiy markazlar va OTMlariga ilmiy safarga yuborishning maqsadga muvofiqligi to`g`risida asoslangan yozma iltimosnomasi bilan murojaat etish.

66. Ilmiy maslahatchi quyidagi majburiyatlarga ega:

- a) doktorantning ilmiy ishiga samarali ilmiy maslahatchilik qilish;
- b) doktorantning tasdiqlangan shaxsiy ish rejasini bajarishini nazorat qilish;
- v) OAK talablariga muvofiq ravishda dissertasiya ishining o`z vaqtida sifatli tugallanishi va himoyaga taqdim etilishini ta'minlash;
- g) har yili Ilmiy kengash oldida doktorant bilan birga hisobot berish.

67. Muntazam ravishda dissertasiya ishlarining o`z vaqtida himoyaga taqdim etilishini ta'minlamaydigan ilmiy maslahatchiga nisbatan OTM yoki ITM Ilmiy kengashining qarori bilan doktorantlarga ilmiy maslahatchilik qilish huquqidан mahrum qilishgacha bo`lgan choralar ko`riliши mumkin.

III. ASPIRANTURA VA DOKTORANTURALAR FAOLIYATINI ShARTNOMA ASOSIDA TASHKIL ETISH

68. Davlat akkreditasiyasidan o`tgan OTM va ITMlari oliv malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash maqsadida fuqarolarni, shu jumladan, xorij fuqarolarini, tanlangan ixtisoslik bo`yicha aspirantura, ad'yunktura, doktoranturaga shartnoma asosida qabul qilishlari mumkin. O`qish fuqaroning istagiga ko`ra davlat yoki rus tilida olib boriladi.

69. Xorijiy davlatlar fuqarolarini aspirantura, ad'yunktura va doktoranturaga qabul qilish:

- a) O`zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlar o`rtasidagi hukumatlararo bitimlar;
- b) jamoa va yakka tartibdagi shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

70. Xorijiy davlatlar aspirantlar, ad'yunktlar, doktorantlarning O`zbekiston Respublikasida o`qish muddati ushbu Nizomga muvofiq ular qabul qilingan kundan boshlab belgilanadi. Oly malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash uchun haq to`lash turi, miqdori va tartibi, stipendiya bilan ta'minlash, turar joy sharoitlarini yaratib berish, tibbiy xizmat ko`rsatish va fors-major vaziyatlari natijasida yetkaziladigan zararni qoplash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

71. Aspirantura, ad'yunktura yoki doktoranturada o`qishga kirayotgan xorij fuqarolari quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- a) aspirantura, ad'yunktura yoki doktoranturaga qabul qilish to`g`risida ariza;
- b) o`rganilgan fanlar hamda ular bo`yicha imtihonlarda olingan baholar (ballar) ko`rsatilgan holda ma'lumoti to`g`risidagi hujjatlarning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxalari;
- v) tibbiyot muassasasi xulosasi;
- g) 4x6 o`lchamdagи 6 dona fotosurati;
- d) milliy pasport amaldagi viza hujjatlari bilan shaxsan ko`rsatiladi.

72. Aspirantura, ad'yunktura va doktoranturada o`qishni istagan, o`zbek yoki rus tilini bilmaydigan xorij fuqarolari mavjud Til markazlarida o`qitiladilar.

73. OTM va ITM ichki tartib-intizomini, shuningdek O`zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ko`zda utilgan boshqa qoidalarni buzgan xorij fuqarolari aspirantura, ad'yunktura va doktoranturadan chetlatiladi.

IV. MUSTAQIL TADQIQOTCHILIK ORQALI ILMUY VA ILMUY-PEDAGOGIK

KADRALAR TAYYORLASH

74. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash aspirantura yoki doktoranturadan tashqari, mustaqil tadqiqotchilik shaklida ham amalga oshirilishi mumkin.
75. Fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun mustaqil tadqiqotchilikka oliy ma'lumotga yoki magistr darajasiga ega bo`lgan, nomzodlik dissertasiyasi ustida mustaqil izlanishlar olib borayotgan, fan va texnikaning tegishli sohasida yetarli bilimga hamda tanlagan ixtisosligi bo`yicha kamida bir yillik stajga ega bo`lgan shaxslar da'vogarlik qilishlari mumkin.
76. Fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun mustaqil tadqiqotchilikka da'vogarlar O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK tomonidan o`rnatilgan tartibga muvofiq nomzodlik minimumi imtihonlarini topshirish, dissertasiyani tayyorlash hamda himoya qilish maqsadida tegishli ixtisosliklar bo`yicha aspiranturaga ega bo`lgan OTM va ITMlarga 3 yilgacha muddatga biriktiriladilar.
77. Fan doktori ilmiy darajasini olish uchun mustaqil tadqiqotchilikka doktorlik dissertasiyasi ustida mustaqil izlanishlar olib borayotgan, fan va texnikaning dolzarb muammolari hamda nazariy masalalari bo`yicha ilmiy tadqiqotlari yuzasidan salmoqli natijalarga erishgan, shuningdek tegishli fan va texnika sohasida chuqur bilimlarga ega bo`lgan fan nomzodlari da'vogarlik qilishlari mumkin.
78. Fan doktori ilmiy darajasini olish uchun mustaqil tadqiqotchilikka da'vogarlar tegishli ixtisosliklar bo`yicha doktorantura faoliyat ko`rsatayotgan, taniqli ilmiy maktab va yetarli moddiy-texnika bazasiga ega bo`lgan yetakchi OTM va ITMlarga 4 yilgacha muddatga biriktiriladilar.
79. Mustaqil tadqiqotchilikka da'vogar OTM va ITMlarga quyidagilarni ilova qilgan holda ariza bilan murojaat qiladi:
- ish joyidan tavsifnomasi;
 - shaxsiy varaqa va tarjimai hol;
 - ilmiy ishlari, patentlari va ilmiy hisobotlari ro`yxati (agar mavjud bo`lsa);
 - oliy ma'lumoti yoki magistr darajasini tasdiqlovchi diplom nusxasi (fan nomzodi ilmiy darajasiga da'vogar mustaqil tadqiqotchi uchun);
 - fan nomzodi diplomi (fan doktori ilmiy darajasiga da'vogar mustaqil tadqiqotchi uchun);
 - nomzodlik imtihonlarini topshirganligi to`g`risida guvohnoma (agar topshirgan bo`lsa);
 - dissertasiyaning kengaytirilgan ish rejasi.
80. Fan doktori ilmiy darajasini olish uchun mustaqil tadqiqotchilikka da'vogarlar arizalari va shaxsiy hujjatlarini ko`rib chiqish, ularni OTM yoki ITMga biriktirish hamda ilmiy maslahatchilarni tayinlash ushbu Nizomning 50, 77, 78 va 79-bandlariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.
81. Fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun mustaqil tadqiqotchilikka da'vogarlarni biriktirish mo`ljallanayotgan ilmiy rahbar bilan suhbat natijasi va tegishli kafedra (bo`lim) xulosasi asosida, mustaqil tadqiqotchilikka biriktirish muddati va ilmiy rahbar ko`rsatilgan holda OTM yoki ITM rahbari buyrug`i bilan rasmiylashtiriladi.
82. Fan nomzodi ilmiy darajasiga da'vogar mustaqil tadqiqotchilar bir oylik muddatda ilmiy rahbar bilan kelishilgan holda tayyorlangan shaxsiy ish rejalarini tasdiqlash uchun kafedra bo`limiga taqdim etadilar.

83. Mustaqil tadqiqotchilarning dissertasiya mavzulari fundamental tadqiqotlar rivojini inobatga olgan holda hamda fan va texnikaning Respublika uchun ustuvor yo`nalishlari doirasida shakllantirilib, uch oylik muddatda muassasa Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi.
84. Fan doktori va nomzodi ilmiy darajasiga da'vogar mustaqil tadqiqotchilar mazkur Nizomning mos ravishda 35, 36, 63 hamda 64-bandlarida ko`rsatilgan huquq va majburiyatlarga egadirlar.
85. Shaxsiy ish rejalarini muvaffaqiyatli yakunlagan va Nizomning tegishli talablarini bajargan mustaqil tadqiqotchilar Ixtisoslashgan kengashlarda dissertasiya himoyasiga qo`yiladilar. Shaxsiy ish rejasini bajarmayotganlar esa mustaqil tadqiqotchilar safidan qayta tiklanish huquqisiz chetlashtiriladilar.
86. Mustaqil tadqiqotchilar faoliyati yuzasidan tashkiliy, nazorat va monitoring ishlari aspirantura hamda doktorantura bo`limi (mutasaddi xodimlar) tomonidan olib boriladi.
87. Bir vaqtning o`zida bir nechta muassasaga mustaqil tadqiqotchi sifatida biriktirilishga ruxsat etilmaydi.
88. Aspirantura (doktorantura)ni to`liq tamomlagan shaxslarga mustaqil tadqiqotchi sifatida biriktirilishga ruxsat etilmaydi.
89. OTMlarda ilmiy rahbar yoki maslahatchilarning mustaqil tadqiqotchilar bilan olib boradigan ishi bir mustaqil tadqiqotchi uchun 50 soat hisobidan ularning umumiyligi (o`quv) yuklamasiga kiritiladi. ITMlarda esa mazkur faoliyat yuzasidan ilmiy rahbar yoki maslahatchi mehnatiga davlat byudjetining fan sohasi bo`yicha ko`zda tutilgan mablag`lardan, shuningdek shartnomada summasidan har bir mustaqil tadqiqotchi uchun 50 soat hisobidan haq to`lanadi.
90. O`zlarining ishlab chiqarishdagi yoki pedagogik faoliyatlarni ilmiy ishlari bilan birga muvaffaqiyatli olib borayotgan mustaqil tadqiqotchilarga dissertasiyalarini yakunlash va himoyaga taqdim etish uchun doktorlik dissertasiyalarini bo`yicha 6 oygacha, nomzodlik dissertasiyalarini bo`yicha esa 3 oygacha o`rtacha ish haqi saqlangan holda ijodiy ta'til beriladi.
91. Ushbu Nizom O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Moliya vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi raisi bilan kelishilgan.

da
(muassasaning nomi)

ochilishi rejalashtirilayotgan

(aspirantura (ad'yunktura) yoki doktorantura)

(ixtisoslik shifri va nomi)

ixtisosligi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan fan doktorlari, professorlar hamda ilmiy rahbarlik huquqiga ega fan nomzodlari to`g`risida

MAÚLUMOT

| To`liq F.I.Sh. | Tug`ilgan yili | Doktorlik (nomzodlik) dissertasiyasi bo`yicha ixtisosligi shifri va nomi | Ilmiy darajasi, unvoni | Ish joyi va lavozimi | | Ixtisosligi bo`yicha so`nggi 5 yildagi asosiy ilmiy ishlari ro`yxati (monografiya, maqola) |
|-------------------|-------------------|--------------------------------------------------------------------------------|------------------------------|----------------------|-------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------|
| | | | | asosiy stavkada | o`rindoshlik asosida | |
| | | | | | | |
| | | | | | | |
| | | | | | | |

_____ (muassasaning nomi)

kadrlar bo`limi boshlig`i (imzo) _____

(F.I.Sh.)

M.O`.

"O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami", 2007 yil, 35-36сон, 365-modda.